MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT
Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

FARG‘ONA VODIYSI SOZGARLIGI

Xikmatillo Gadayev,
Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya: *Maqolada nomoddiy madaniy merosning an’anaviy hunarmandchilik yo‘nalishida sozgarlik sohasi Farg‘ona vodiysi sozgarligi misolida yoritiladi. Shuningdek, vodiy hududlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar, Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur hukmronligidagi soz to‘g‘risidagi rivoyat, hikoyalar, A.Navoiy asarlaridagi fikrlar, yaqin tariximizdagi ijodiy jarayonlarni sozgarlik sohasi bilan birga rivojlanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *An’anaviy hunarmandchilik,sozgarlik,urg‘u-zarblari, jodu-afsun ohang iboralari, Mingtepa-ko‘hna, Qo‘rgontepa, Axsikent, Ershi, Quva, qiyomat, kunkay, “Ajdar karnay” lokal yo‘nalish, do‘mbira.*

Аннотация: *В статье на примере сазгарства Ферганской долины освещается область сазгарства в направлении традиционного ремесленничества нематериального культурного наследия. Также приводятся сведения об археологических раскопках, проведенных на территории долины, преданиях и рассказах о сазе во времена правления Амира Темура и Захириддина Мухаммада Бабура, мыслях в произведениях А.Навои, развитии творческих процессов в нашей недавней истории вместе со сферой музыки.*

Ключевые слова: *Традиционное ремесленничество, инструментализм, ударения, магические мелодические выражения, Мингтера-кухна, Кургонтера, Ахсикент, Ерши, Кува, судный день, кункай, локальное направление ”Аждар карнай,” домбра.*

Abstract: *The article highlights the sphere of speech in the traditional craft direction of the Intangible Cultural Heritage using the example of the speech of the Fergana Valley. Also, archaeological excavations conducted in the valley areas, stories about speech during the reign of Amir Temur and Zahiriddin Muhammad Babur, stories. Thoughts in the works of A.Navoi, information on the development of creative processes in our recent history along with the sphere of speech are presented.*

Keywords: *Traditional crafts, speech, accents, magic and spell melodic phrases, Mingtera-Kohna, Qorgantera, Akhsikent, Ershi, Kuva, Qiyamat, Kunkai, “Ajdar Karnay” local direction, dombira.*

Milliy qadriyatlarimizning mavqeyi yanada yuksalib borayotgan ushbu pallada Nomoddiy madaniy merosning an’anaviy hunarmandchilik yo‘nalishida sozgarlik sohasi a’lohida o‘rin tutadi. Soz – Markaziy Osiyo xalqlarida musiqa cholg‘u asboblarining umumiy ifodasidir. Sozgarlik – deganda hunarmandchilik sohalaridan biri, cholg‘u asboblarini yasash san’ati tushuniladi. Ushbu sozgarlik sohasi qadim sohalardan biri bo‘lib, uning tarixi uzoq asrlarga qadaladi. Ilk musiqa asboblari inson hamda uni o‘rab turgan atrof tabiatdagi tovushlarga, qushlarning sayrashi, suvlarning shildirab oqishi, baland-past tovushlari, bir xil ritmdagi qadam tovushlari, shamol tovushlari va boshqa tovushlarga taqlid qilish, ularga o‘xshatib tovush chiqarishga harakatlar natijasida yuzaga kelgan.

Yashash uchun kurash, ovchilik yoki mehnat davomida bir-biriga xabar berish, biror hodisadan ogohlantirish, yirtqich hayvonlarni qo‘rqitish maqsadida ikki jismni bir-biriga urib baland ovoz chiqarish harakatlari davomida nog‘oralar, hayvonlar shoxidan, suyaklaridan yasalgan burg‘ular yaralgan. Shunga o‘xshash cholg‘ularning sodda, oddiy ko‘rinishlari inson jamiyatining ilk bosqichlarida paydo bo‘lgan. Insonga hali tabiat hodisalari jumboq bo‘lgan, tushunib, anglab yetmagan davlarda ko‘p jihatdan o‘ta ojizligi, tashqi xavfdan o‘zini saqlash, himoyalanishi uchun zarur bo‘lgan vositalarni topish yo‘lida ko‘p mashaqqatlarni bosib o‘tganligini anglatadi. Ibtidoiy odam yashash uchun kurashi davomida ovlagan o‘ljasiga qorin to‘ydirish manbayi sifatida qaragan bo‘lsa, vaqtlar o‘tishi bilan asta-sekin uning ongi, aqliy tafakkuri rivojlanib, undagi idrok va hissiyot ham boyib kengayib borgan. Hayot tarzi bora-bora ovlagan hayvonini terisidan, suyagidan yoki uchragan biror daraxtning shoxidan, tanasidan, qavig‘idan, bargidan biror yumushda foydalanishni yo‘lga qoygan. Ilikdan tozalangan suyaklarni puflab biror ovoz chiqarish, junidan tozalangan qurigan terini biror buyumga qoplash, tortish, ichaklarni quritib, yog‘ochga tortib chertib sadolantirishga urinishgan. Insonni hayratlantirgan ushbu g‘ayritabiiy tovushlardan ilhomlanib, odam ilk tovush qurollarini yaratadi va ulardan dastlab ov paytlari tuzoq (hayvonlar yoki qushlar ovozini o‘xshatish, taqlid qilish) sifatida foydalanadi.

Musiqa ijodiyotining ilk ko‘rinishlari ommaviy o‘yinlarning urg‘u-zarblari, jodu-afsun ohang iboralari, hayvon va qushlar ovoziga taqlid sadolari, ogohlantirish, ya’ni darak beruvchi qichqiriq-baqiriqlardan asta-sekin aynan musiqa xususiyatlariga ega bo‘lgan ifodaviy vositalarida namoyon bo‘ladi. Odam tanasining, ya’ni qo‘l-oyoq harakatlarini aks ettiruvchi bir xil ritmik tuzilmalar, usullar, shuningdek, odam ovozi, unli tovushlar, nutq intonatsiyasi ta’sirchanligiga asoslangan ohang iboralari tarzida rivoj topadi. Shu bilan birga tosh, suyak, yog‘och, chig‘anoq, shox kabi tabiat in’omlari ilk musiqa cholg‘ulari, “musiqa qurollari” sifatida qo‘llanila boshlaydi. Bulardan hozirgacha saqlanib qolgan turli shiqildoq, hushtak, burg‘u, sibizg‘a, urma, ya’ni qayroq, dovul kabi cholg‘ularni misol qila olamiz. Dehqonchilik va chorvachilikka o‘tish davrida oldin muayyan tartib hamda aniq balandlikka ega bo‘lmagan tovush nisbatlari asosida tovushqator, parda tuzilmalari, o‘lchov va vaznning ilk shakllari yuzaga keladi. Mazkur jarayonda oddiy xususan, mavsum marosim qo‘shiqlar, muayyan mavzuli cholg‘u kuylar qaror topa boshlaydi.

Arxeolog-qadimshunoslar ham musiqa asboblari qadimiy davrlarda paydo bo‘lganligiga guvohlik beradilar. Farg‘ona vodiysida Y.A. Zadneprovskiy, G.Abulg‘oziyeva, A.Anorbayev, B.Matbabayev, N.G. Gorbunova rahbarligidagi arxeologik guruhlar tarixiy obidalarda arxeologik qazish ishlarini olib bordilar. Antik davrga oid 20 ga yaqin yodgorlik qayd etilgan, Xitoy yozma manbalaridagi ma’lumotlarga qaraganda, Farg‘ona vodiysida 70 dan ortiq shaharlar bo‘lgan.

Mingtepa – ko‘hna shahar xarobasi (miloddan avvalgi 3 – milodiy 5-asr). Andijon viloyati Marhamat tumani markaziga tutashib ketgan yodgorlik. Xitoy yozma manbalaridagi Ershi shahri bilan aynan deb taxmin etiladi.

Qo‘rg‘ontepa – rejalashtirilishi to‘g‘riburchak shaklda (250x230 m), 5,7 ga, qadimda devor bilan o‘rab olingan.

Axsikent-1A, Axsikent 1V – rejalashtirilishi to‘g‘riburchak shaklda, umumiy maydoni 35 ga, miloddan avvalgi III – II asrlarga oid, qalinligi 5 m. devor bilan o‘rab olingan.

Ershi – shaharning joylashish o‘rni mulohazali. N.Y. Bichurin Ershini Qo‘qon shahri o‘rnida, A.N. Bernshtam esa Mingtepa yodgorligida degan fikrni bildiradilar. Yangi ma’lumotlarga qaraganda, Ershi – Eski Axsi degan fikrlar paydo bo‘ldi. Miloddan avvalgi III–I asrlarda Ershi Axsi o‘rnida bo‘lgan shahar 40 ga bo‘lib, ark ikki qismdan iborat bo‘lgan Esgarlik devor bilan o‘rab olingan, qalinligi – 5 m, balandligi – 3 m.

Quva (Kubo) – Farg‘ona viloyati Quva tumanidagi shahar (1974-yildan), tuman markazi. Farg‘ona shahridan 40 km. shimoli-sharqda. Hududlarida ular amalga oshirgan deyarli hamma qazish ishlarida ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechak qoldiqlari, zeb-u ziynatlar kabilar qavatida qadimiy musiqa asboblari ham topilgan.

Xitoyliklar uchun “G‘arb” – Farg‘ona (Pargana) davlati bo‘lgan. Ushbu davlatning barcha sohadagi yutuqlaridan andozalar olinib, o‘zlashtira borilgan. Shuningdek, qadim sozlarimizdan ham foydalanib, o‘z sozlarini takomillashtirishgani aytiladi. Musiqa tarixi haqida o‘rganilgan va o‘rganilmagan ma’lumotlar juda ko‘p. Lekin aynan sozgarlik to‘g‘risida, sozgarlar to‘g‘risida adabiyotlarda ham, risolalarda ham ma’lumotlar kam uchraydi. Mavzuni Farg‘ona vodiysiga bog‘lar ekanmiz, o‘tmishda hududning karvon yo‘liga qulay joylashuvi uning barcha shahar va qishloqlarining iqtisodini hamda madaniy hayotining rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Hind, Arab, Eron, Xitoy o‘lkalaridan kelib ketilgan va yurtimizdan boshqa ellarga chiqqan karvonlarda savdo-sotiq, tovar ayirboshlash, ilm-fan yangiliklari, shuningdek, musiqaga oid yangiliklar ham ular orqali boshqa mamlakatlarga tarqagan. Har bir karvonda bir va bir nechta sozanda yoki xonandaning bo‘lishi odatiy holga aylangan. Karvondagi sozanda qo‘lidagi nog‘ora yoki boshqa zarb cholg‘usi, yoki tirnama cholg‘usi, yoki puflama cholg‘u bo‘lsin karvonning harakati davomida bir maromda ijro qilinishi, karvonda borayotgan barcha odamlarga hatto hayvonlarga ham xotirjamlik ato etgan. Ritmning o‘zgarishi yoki cholg‘u ohanggining o‘zgarishi karvonning to‘xtashi yoki tezlashishi biror xavf to‘g‘risida ogohlantirgan. Karvonning manziliga – biror shahar, qishloqqa, karvonsaroyga yaqinlashganini uzoqdan boshqalar ham o‘sha chalinayotgan ritm yoki ohangdan bilishgan. Karvonsaroylarda hordiq bahona sozanda-xonandalar tomonidan turfa xil kuy va ohanglar ijro san’atining rivojlanishiga cholg‘u sozlarining takomillashishiga hissa qo‘shgan. Cholg‘uchi qo‘lidagi cholg‘ular ham ma’lum ma’noda el kezib, boshqa cholg‘u yaralishida andozaga aylangan.

Amir Temur hukmronlik qilgan dastlabki davrlarda O‘rta Osiyoning qadimgi markazlaridan biri bo‘lagn Farg‘ona vodiysiga bir necha marta kelgani va bu borada bir qator rivoyatlar mavjud.

Naql qilishlaricha, Amir Temur 1390-yillarda Farg‘onadan O‘sh shahriga yo‘l oladi. O‘z qo‘shinlari bilan adirliklardan oshib, tog‘lar bilan o‘ralgan mo‘jaz shaharga yaqinlashar ekan, chekka bir qishloqdan karnay sadolari eshitiladi. Bunga hayron bo‘lgan Amir Temur yo‘l boshchilardan nega karnay chalinayotganini so‘raydi. Shunda yo‘lboshchilar:

– Shohim, bu qishloq aholisi avvaldan o‘z qishlog‘iga odil va adolatparvar hukmdor tashrif buyurganida ularni shunday karnay chalib, katta tantanalar bilan kutib oladilar, – deydi. Unga javoban amir Temur:

– Bunday odat bo‘lsa, demak, bu qishloqda mashhur karnaychilar yasharkan-da. Bundan chiqdi, biz karnaychilar qishlog‘iga kelibmiz-da, – degan ekan. Shu-shu, ushbu qishloq Karnaychi deb atalib kelinarkan.

Karnaychi qishlog‘i hozirgi Xo‘jaobod tumanida joylashgan bo‘lib, Buloqboshi tumaniga tutashgan [3].

Alisher Navoiy ham “Mahbub ul-qulub” asarida sozanda va xonandalar haqida shunday satrlarni bitgan: “Shodlikni oshiruvchi xonanda, g‘amni ketkazuvchi sozanda – bularning har ikkisiga holva dard ahli jon fido qilurlar. U soz chalib yoqimli ashula qilganida, eshituvchining hayoti naqdi unga fido bo‘lsa ne g‘am. Ko‘ngil guvvati yaxshi cholg‘uchidan, ruh ozig‘i xush ovozidandir. Xushxon sozandadan dard ahlining o‘ti tez bo‘lar, agar go‘zal bo‘lsa, hol ahli o‘rtasida qiyomat ko‘par. Har bir sozandaning sozi dardliroq bo‘lar ekan, uning chertilishi yarali yurakka ta’sirliroq tegar. Porloq yuzli sozanda halqumidan yoqimli qo‘shiq chiqarib, hol ahlining kuygan bag‘ridan tutun chiqaradi. Yoqimli mashshoq, agar fahm-farosatli bo‘lsa, odam ko‘ngli toshdan bo‘lsa ham unga beriladi, xususan, ham aytsa va ham chalsa, ko‘ngil mulkiga qanday qo‘zg‘olonlar solar” [4]. Bundan ko‘rinib turibdiki, yaxshi bir diltortar asarni ijro qilinishi yoxud yaralishi uchun, albatta, yaxshi soz, yaxshi cholg‘uchi va yaxshi ijrochi bo‘lishi kerakligi aytilmoqda.

Z.M.Bobur (1483 – 1530) Andijon taxtiga o‘tirgach, bobosi kabi O‘sh shahri obodonchiligiga yaxshi e’tibor berdi. U O‘sh shahrining kunkay tarafiga bir uy soldirdi va bu uyning bitkazilishi katta tantana saylga aylanib ketdi. Bu yerga chor atrofdan karnaychi va surnaychilar taklif etiladi. Buloqboshi qishlog‘idan kelgan Mirzaolim ismli yosh karnaychi yigit o‘z mahorati bilan yosh Bobur e’tiborini tortadi. Shoh uni o‘z huzuriga chorlaydi.

– Nechuk bu karnay o‘zgacha? – deb so‘raydi Bobur shoh Mirzaolimning karnayini qo‘lga olib zavq bilan tomosha qilarkan. – Ajab, –deydi shoh qiziqib. – Karnay tarixi, otangiz haqida so‘zlab bersangiz.

Shunda Mirzaolim quyidagilarni hikoya qiladi:

– Menga otam rahmatli Bolti karnaychi so‘zlab bergan edilar. Ul zot ham bu karnayni otasidan – Nur karnaychidan meros olib, ko‘p shon-shuhrat topgan ekanlar. “Ajdar karnay” deb atalishiga bois shul ekanki, Andijon muzofotida Nur karnaychidek usta va ustuvor karnaychi bo‘lmagan. Bul karnay chalinganda 10-12 chaqirim naridagilarga ham baralla eshitilar va bobom Nur karnaychiga kim basma-bas chiqsa, u albatta yutkazarkan. Fahmimcha, bu karnay faqat bobomga atab yasalgan ko‘rinadi. Aytishlaricha, ul zot savlatli, uzun bo‘y, baquvvat kishi bo‘lgan ekanlar. Yana naql qilishlaricha, bu karnayning ikkinchisi o‘shlik bir karnaychida qolgan ekan.

– Ofarin , – deydi Bobur shoh.

Mirzaolim tavoze bilan deydi, – karnay usullarini ham padari buzrukvorimdan o‘rganganman. Ul zotning ota urug‘i Karnaychi qishlog‘iga ulashgan deydilar”.

Ushbu maqolada aytilgan karnay hozirda Andijon tarix muzeyida saqlanmoqda. Sulolaning 12 vakillari bobokalonlari kasbini davom ettirib kelmoqda. Amir Temur ham, Zahiriddin Muhammad Bobur ham Hindiston yurishi janglarida yuzlab nog‘ora va yana yuzlab karnaylardan foydalangan. Avvalo, qo‘shinni boshqarishda, u yoki bu harakatga keltirishda, chekinishda maxfiy signallar o‘rnida qo‘llanilgan. Temuriylar qo‘shinlarida

ilg‘or bo‘linmalarga jangdagi qahramonliklari uchun mukofot tarzida nog‘ora taqdim etilgan. Endi savol tug‘iladi, buncha miqdorda asboblarni kim yasagan? Demak, Egarchilar mahallasi, Kamonchilar mahallasi bo‘lgani kabi, Misgarlar mahallasi (karnay), nog‘arachilar mahallasi yoki Sozgarlar mahallalari ham uyushgan holda zarur cholg‘ularni jang maydonlariga, saroy ichkarisiga yetkazib berishgan. Demak, Temuriylar davridayoq sozgarlik sohasi yuksak namunada namoyon bo‘lganini anglaymiz. Tarixning mashaqqatli, zalvorli yo‘lini bosib o‘tgan sozgarlik sohasining rivoji 1920-yillardan boshlab jadallashgani seziladi. Toshkent shahrining Farg‘ona vodiysi bilan qulay joylashuvi, poytaxtga aylanishi, lokal yo‘nalishining bir xilligi, ijodiy hamkorlik, quda-andachilik va albatta, jamiyatdagi o‘zgarishlar vodiyda ham sozgarlik rivojida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urishidan keyingi islohotlar poytaxtda, viloyatlarda, teleradio va korxonalar qoshida tashkil etilgan badiiy jamoalar cholg‘uchilari uchun tayyorlangan musiqa asboblarining sifati, tuzilishi, yasalishida katta arzirli o‘zgarishlar bo‘ldi. Bir cholg‘uning tayyor bo‘lguniga qadar, uning materialining tayyor bo‘lishi va uni chopib soz shakliga kelguniga qadar ancha vaqt talab qilgan. Shu bois ko‘p sozandalar qiziqqan cholg‘usini o‘zlari ham yasab olgan. Usta Ro‘zimatxon Isaboyev (o‘zi uchun chang yasagan (1885–1964). Ularning zamondoshlari Rizqi Rajabiy (do‘mbira yasagan), Orif Qosimov (nay yasagan) [1]. Usta Xoldor (Xolmuhammad Olimjonov) 1939-yil 23-avgustda Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani Bachqir qishlog‘ida o‘ymakor usta Olimjon aka oilasida tavallud topgan. Usta Xoldor mashhur sozgar usta Usmon Zufarovning shogirdi hisoblanadi. Yetuk shogird usta Xoldorning yasagan sozlari, ayniqsa, ruboblari qo‘shni yurtlarda ham mashhur bo‘ldi. Usta Xoldor dastlabki tanburini xalqimizning ardog‘idagi hofizi Rasulqori Mamadaliyevga yasab bergan (va taqdir taqozosi bilan uning qiziga uylangan). O‘zbekiston xalq artisti M.Mirzayevga, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist T.Rajabiyga yasagan ruboblari bunga yorqin misol bo‘la oladi. Bizning yuqorida aytganlarimiz, keltirgan misollarimiz dengizdan tomchi xolos.

Barcha ilmiy tadqiqotlarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi, izlanishlar, o‘rganishlar mobaynida yana bir-birida namoyon bo‘lishini kuzatamiz. Shuningdek sozlar tarixi, sozgarlik tarixi ham bundan mustasno emas. Respublikamizda yetishib chiqqan yuzlab mohir sozanda-xonandalar va sozgarlar bir-birlarini kashf qildilar, desak mubolag‘a emas, bu qadriyatlar bugun ham davom etayotganligi va albatta, kelajak avlodlarimizga ham yetib borishi muqaddas burchdir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek milliy cholg‘ulari sozgarligining o‘ziga xos ilmiy-tarixiy evolyutsiyasi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Hunarmand uyushmasi va O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi hamkorligidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025-yil 24-aprel. – B. 5–33. (Shundan: O‘. Nazarov. “Umrboqiy sozlar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallaridan. T., 2014; Usta Xoldor bilan suhbatdan).

2. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi. – Toshkent: ICHKAP, 2017. (YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi).

3. Jalol T., Otaxonov X. “Ajdar karnay va ajdodlar mehri” nomli maqola // “Shonli mehnat” gazetasi. – 1993-yil, 14-oktabr. – B. 2.
4. Navoiy A. Asarlar. O‘n uchinchi tom. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. – B. 193.
5. Qodirov M. O‘zbek xalq tomosha san’ati. – Toshkent: Fan, 1981. – 288 b. (Nashriyot va sahifalar to‘ldirildi).
6. Toshmatov O‘., Isakulova N. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2014. – 142 b.